
QUVASOY SHAHAR HUDUDIDA 2022 YILDA UMUMFOYDALANISHDAGI VA ICHKI XO'JALIK YO'LLARIDA OLIB BORILGAN QURILISH-TA'MIRLASH ISHLARI TO'G'RSIDA MA'LUMOT



Korxonada tasarrufida bo'lgan 168 km masofadagi umumfoydalanishdagi avtomobil yo'llarida jami 2 929,4 mln.so'mlik joriy ta'mirlash ishlari olib borilib, reja 100%ga bajarildi. (Davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarida - 2 329,4 mln.so'm; Mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarida - 600,0 mln.so'm).

Umumfoydalanishdagi avtomobil yo'llarida jami 2 156,5 mln.so'mlik saqlash ishlari olib borish ko'zda tutilgan (Davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarida - 618,2 mln.so'm; Mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarida - 1 538,3 mln.so'm.) bo'lib, bugungi kunga qadar 1 827,8 mln.so'mlik saqlash ishlari olib borildi. (Davlat ahamiyatidagi avtomobil yo'llarida - 532,1 mln.so'm; Mahalliy ahamiyatdagi avtomobil yo'llarida - 1295,7 mln.so'm.)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-190-sonli qarori doirasida, Quvasoy yo'llardan foydalanish unitar korxonasi tasarrufidagi avtomobil yo'llarida 40 dona yo'l belgilarini yangidan o'rnatildi, 245 dona mavjud eskirgan yo'l belgilari o'rniga zamonaviy nur qaytaruvchi yo'l belgilariga almashtirildi. 22 dona yo'l ko'rsatkichlarini o'rnatish va yo'l belgilarini o'rnatish yuzasidan yo'l belgi korxonasiga talabnomalar berildi, 55,5 km yo'l yotiq chiziqlari chizildi.

Shahardagi umumfoydalanishdagi avtomobil yo'llarida joylashgan

20, 21, 24 va 27-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablari oldiga harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida sun'iy notekislik barpo qilindi.

1,5,6,9,10,11,12,13,14,17,20,21,22,24,25,27-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda 90-sonli Maxsus maktab va Xuvaydo MFY Shifokorlar ko'chasidagi "INTELLEKT" xususiy maktabi, shuningdek, Lashkar MFY hududida joylashgan "Bolalar dam olish maskani" oldiga 3.24 "Yuqori tezlikni cheklash" (30) yo'l belgilari o'rnatilib, 1.14 yo'l yotiq chizig'i (Piyodalar o'tish joyi) 5.16.2 "Piyodalar o'tish joyi" yo'l belgilari zamonaviy nur qaytaruvchi yo'l belgilari o'rnatildi.

4r-142 "Quvasoy-Arsif" avtomobil yo'lining 8,0 km qismida,

4n-844 "Quvasoy-Polmon" avtomobil yo'lining 3,0 km qismida asfaltlashtirish ishlari olib borildi va 4r-204 "Farg'ona xalqasi-Sufon", 4k-843 "Qobilbek-Lashkar-Valik" avtomobil yo'llaridagi chuqur-chanoqlar (yamochniy) ta'mirlanib yo'lining xolati yaxshilandi va harakat xavfsizligi ta'minlandi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-01-05 17:00:50